

MUMTOZ ADABIYOT HAQIQATI

Nasiba Jo'raqulova,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Adabiyot yoxud badiiy ifoda olamning yaralishini tushunish, bu borliqqa kelmoq va ketmoq mag'ziga yetish, taqdiri azaldagi bitiklarni idrok etib, qadarga rozi bo'lish haqida o'g'it beradi. Badiiy asar insoniyatning fe'l-atvori, hol-amali hamda maqom-martabasini o'z-o'ziga anglatmoq, shu orqali to'g'ri yo'l manzilini ko'rsatmoq uchun ham g'oyat zarur. Umuman olganda, har qaysi davrda badiiyat odamiylik tariqi xususida bahs yuritdi, obraz, ramz va timsollar vositasida raso hamda qing'ir xulq-atvorni aks ettirdi. Maqolada adabiyotning maqsad-vazifasi xususida fikr bildirilib, uning odob-axloq o'rgatish borasidagi ahamiyati haqida mulohaza yuritildi.

Kalit so'zlar: adabiyot, badiiy asar, she'riyat, odob, axloqiy tamoyillar, "Hayrat ul-abror", vazifa hamda majburiyatlar.

Аннотация. Литература, или художественное выражение, даёт наставления о понимании сотворения мира, постижении смысла прихода в этот мир и ухода из него, осознании предначертанной судьбы и смирении с ней. Художественное произведение крайне необходимо для того, чтобы человек осознал собственный характер, поступки и положение, а через это нашёл верный жизненный путь. В целом, во все эпохи искусство вело размышления о человеческой сущности, отражая посредством образов, символов и художественных типов как праведное, так и искажённое поведение. В статье рассматриваются цели и задачи литературы, а также её значение в воспитании нравственности и этических принципов.

Ключевые слова: литература, художественное произведение, поэзия, нравственность, этические принципы, «Хайрат ул-аброр», задачи и обязанности.

Abstract. Literature, or artistic expression, offers guidance on understanding the creation of the world, grasping the essence of coming into and departing from existence, comprehending the preordained destiny, and accepting one's fate. A literary work is essential for helping individuals recognize their own character, actions, and social standing, and through this, to find the right path in life. In general, across all eras, literature has reflected on the nature of humanity, portraying both righteous and flawed behavior through images, symbols, and artistic representations. This article discusses the aims and functions of literature, as well as its significance in fostering morality and ethical principles.

Keywords: literature, literary work, poetry, manners, ethical principles, Hayrat ul-abror, duties and responsibilities.

Kirish. Badiiy adabiyotning maqsad-vazifalari, ifoda uslubi, tasvir vositalari xususida ko'p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ijodkor hamda adabiyotshunos olimlar asrlar davomida adabiyot mohiyatini tushunmoq va tushuntirmoq uchun jiddu jahd qilishdi. Ayniqsa, she'r va she'riyat xususida shoirlar yozgan baytlar shu maqsad yo'lida xizmat qilgan. Bu sirli olam, davrlar osha unga oshufta ko'ngillarning mudom bisyorligi, albatta, fikrlashga undaydi. Bizningcha, adabiyot o'z vazifasini inson ruhiyatini uyg'otmoqdan boshlaydi.

Adabiyotlar sharhi. Uyg'onmoq hamma zamonlarda ham oliy matlab bo'lgan. Unutuvchi ma'nosidagi so'zdan olingan inson, odamzodni uyg'otish ehtiyoji bo'lmaganda nabiylarning hasratli va'zlari, tariqat erlarining hikmatlari, alp onalarning "Uyg'on bolam" allari dunyoga kelmasdi. Xaloyiqning "Uxlagan ko'nglimizni uyg'otgil", xitobiga javoban Hazrati Shayx Hasan Basriy shunday degan ekanlar: "Uxlagan ko'ngilni uyg'otmoq

qulaydir, ammo sizning ko'nglingiz o'lgan, zero, hech harakat etmas". Nima uchun ko'ngil uyg'onmog'i kerak, yurak bedorligi insonni g'ofillikdan asraydimi? Shayx Najmiddin Kubro bir risolasini ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim, deb nomlagan va nihoyada "mening yuragim ham muallimim, ham ma'badim, ya'ni ibodatxonamdur", deya izoh keltirgan. Xoja Bektoshi Valiy "Ko'ngil ulug' bir shahardirki, Alloh taolo Arshdan yerning qa'rigacha neki yaratgan bo'lsa, ularning hammasi mana shu shaharda bordir va unga sig'ar. U shaharda ikki sulton hukm surar, biri rahmoniy, ikkinchisi shaytoniy. Rahmoniy sultonning yetti qal'asi bo'lib, ularning qo'riqchilari ilm, jo'mardlik, hayo, sabr, parhezkorlik, qo'rquv va adabdir. Ko'ngilning ikkinchi sultoni iblis bo'lib, nafs uning noibi, qo'riqchilari esa kibr, hasad, fitna, ochko'zlik, g'azab, g'iybat, masxarabozlik va qahqahadir. Payg'ambarimiz (s.a.v.) aytadilarki, Alloh taolo insonga to'rt ko'z bergan, ikkisi boshda, ikkisi ko'ngildadir. Zohirdagi ko'z xalqni, basirat ko'zi esa Xoliqni ko'rar", deb yozadi. Aytmoqchimizki, adabiyot aynan ko'ngil ko'zini ochmoq yoyinki ravshanlashtirmoq uchun harakat qiladi. Agar shunday bo'lmaganda, hazrat Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining asosiy boblarini ko'ngil ta'rifi bilan boshlamagan va uch hayrat bosqichlarini uning tavsifi bilan bog'lamagan bo'lar edi:

Ko'ngil erur bulbuli bo'stoni roz,

Quds harimida bo'lib jilvasoz.

Royihai jannati a'lo ham ul,

Partavi misbohi tajallo ham ul.

Hazrat Navoiy ko'ngilda Yaratgan jilvasi aks etishini aytib, ana shunday ko'ngilga ega bo'lmoq dardu balo tog'ida Farhodga aylanib, tirnoqlarni po'latdan qilish natijasida hosil bo'lishini yozadi. Bizningcha, mana shu ishqni bayroq qilgan "mehnat"(mashaqqat) yo'li adabiyot yo'lidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Najmiddin Kubro, Xoja Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy singari ulug' valiylar o'z maslaklarini hikmatlarida, hol va haqiqat aks etgan she'rlarida qoldirgani, shayx va avliyolar hayoti, ma'naviy maqomi va ma'rifiy so'zlaridan xabar beruvchi tazkiralar yozilib, maxsus adabiy janr holiga keltirilishi adabiyot e'tiqod va odamiylik ilmi ekanligiga dalil bo'la oladi. Adabiyot ko'ngillarni o'limdan asraydi, g'aflatni nari surib, ogohlikni taqozo etadi.

Chunonchi, turkiy ilk doston "Qutadg'u bilig"da Oyto'ldining o'tim qul, o'zim xizmatkor, o'rnim eshik oldi, fe'lu raftorim odamgarchilik, qiladigan ishim xizmat, deyishida bu foniy dunyoga kelmoqdan murod, yashamoq mohiyati to'la aks etadi. Inson aslida Yaratganga qul, bandalarga xizmatkor va har doim tiriklik va o'lim orasida bir qadam borligini anglab, eshik oldida hushyor turgan hojib bo'lmog'i lozim. Shayx Sa'diy tariqat – xalq xizmatidan boshqa narsa emas, deganda, umr yaxshilik va ko'makdan iborat ekanligini aytmoqchi bo'lgandir balki. Adabiyot insoniyatga shu xizmat tarzini o'rgatadi. O'z istaklaridan voz kechib, Alloh roziligi uchun bandalarga ezgulik ulashishga boshlaydi.

Siz-u bizni Haq yaratdi toat uchun,

*Ey bulajab, ichmak, yemak, rohat uchun,
“Qolu bala” dedi ruhum mehnat uchun,
Adham bo‘lub yer ostig‘a kirdim mano.*

*Kimni ko‘rsam xizmat qilib quli bo‘lsam,
Tufroq sifat yo‘l ustida yo‘li bo‘lsam,
Oshiqnlarni kuyub uchgan kuli bo‘lsam,
Marham bo‘lib yer ostig‘a kirdim mano.*

Mumtoz adabiyotdagi qaysi asarni mutolaa qilmang, nafsga ko‘zgu tutadi. Farddan dostongacha barchasi o‘zligingni tanish uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, “Lison ut-tayr” dostonida bir zolim podshohning g‘aflat chohidan qanday xalos bo‘lgani aytiladi. Unga ko‘ra, podshoh ikki darveshning yo‘ldosh ekanini ko‘rib, birini chaqirib, suhbatga tortadi. O‘zining va ikkinchi darveshning yaxshiligi orasida qanday farq borligini so‘raydi. Darvesh to‘g‘risini gapiradi, u bir shoh bo‘lsada, Haq amriga quloq tutmay, umrini behuda o‘tkazayotganini aytadi.

Hikoyat so‘ngida shohning bu so‘zlardan so‘ng g‘ofillikni bedorlik, mastlikni hushyorlikka almashtirgani yoziladi. Ya‘ni inson bu hayotda nafsoniy istaklar oromidan chekilib, mashaqqat va mehnat yo‘lida sobit bo‘lmog‘i kerak. Chin odamlilik sharti shu. Adabiyot bu yo‘ldan qanday o‘tish tadbirini o‘rgata oladigan eng asosiy ilmlardan biridir. Uning mohiyati tiriklik asrori, bosh matlabi odamiylik sifatlarini o‘rgatmoq, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Lekin bularning barchasi uyg‘oqlikdan boshlanadi. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov aytganidek:

*Marsga to‘p otquchi — sen, Zuhroni uyg‘otquchi — sen,
Uyquda qotquchi — sen, uyg‘on o‘zing, uyg‘on o‘zing.*

Natijalar. Keyingi yillarda adabiyot odob-axloq kodeksi, pandnoma dasturi emasligi haqida ko‘p mulohazalar bildirilgan. Badiiy asar insonga o‘git emas, jonli namuna bo‘lishi, adabiyot insonning jamiki his-tuyg‘ularini erkin ifoda qilish imtiyoziga egaligi ayni haqiqat. Avvalo, adab va odob so‘zlarining lug‘aviy ma‘nolari haqida ma‘lumot bersak. Professor Adham Jabajio‘g‘li tartib bergan lug‘atda “adab” amal qilinishi lozim bo‘lgan qoidalar, axloqiy me‘yorlar jamlanmasini ifodalashi aytib o‘tilgan. So‘zning tub mohiyatini izchil tadqiq qilgan atoqli olim Aliybek Rustamiy o‘z risolasida odob va adab kalomlariga alohida qism ajratib, adabning eng asosiy ma‘nosini har bir ishda me‘yorni saqlashdir, deb uqtiradi. Shuningdek, adabning ta‘zir ma‘nosi ham borligini aytib, badiiy manbalarda “adabini bermak”, “adab qilmak” birikmalari har ishning to‘g‘risini ko‘rsatmoq ma‘nosida kelgani ham keltirilgan. Olim odob so‘zini adabning ko‘plik shakli ekanligini eslatib, inson faoliyatidagi sohalarga rioya qilish malakasi hisoblanishini anglatadi [2, 9-10]. Demak, odob faqat ezgu xulq-atvor emas, har sohada o‘zni munosib tutmoq va ma‘lum bir vaziyatlarda loyiq harakat etmoqdir. Bu masalani “Hayrat ul-abror” dostonidagi “Adab dab‘idakim...” bobi mutolaasi bilan to‘la anglamoq mumkin. Ulug‘

mutafakkir adabni “kichiklarga mujibi saodatmandlig‘ va ulug‘larg‘a boisi sarbalandliq” [1, 181] deb ataydi. Hazrat Navoiy nazdida, adabning kichik ko‘rinishi mana bu taxlit:

Tifl uchun qo‘pmoq emastur adab,

Pirlar ul ishni demastur adab.

Ul mutakabbir bo‘lur-u sen yengil,

Bu ikki ish el nega qilg‘ay degil.[1,185]

Adab faqat muloyim muomalada bo‘lish, siniqlik yoyinki o‘zni xorlash emas, kerak o‘rinda qat‘iyat, jur‘at ko‘rsatish, aniq qaror qabul qila bilishdir. Bobda adab qoidalari bir insonning turli jabhadagi vazifalari misolida ham yoritilgan:

Garchi adab shartida bag‘oyat kerak,

Har kishi tavrida rioyat kerak.[1,185]

Agar bir odam rahbar lavozimida ishlasa, qo‘l ostidagilar oldidagi vazifalari bor. Bu majburiyatlar dostonida shunday ifodalangan:

1.O‘ziga tobe‘ odamning ko‘ngil qayg‘usiga sherik bo‘lmoq

2. Xodimlarning farz va sunnat qoidalariga rioyasini nazorat etmoq

3. Moddiy ahvolidan boxabar bo‘lib, haqlarini o‘z vaqtida bermoq

Bu vazifalarni bajarmoq quyidagi sababga ko‘ra shubhasiz majburiydir:

Hashrdadur chunki xitobi sanga,

Har ne savol o‘lsa javobi sanga.

Xizmatchilari oldidagi odobni ado qilgan odam oila va farzand kamolida ham bir qancha qoidalarga rioya etmog‘i lozim. Jumladan, bola oldidagi burchlar:

1.Kichikligidan parvarish qilmoq

2. Yaxshi ism qo‘ymoq

3. Farzandga ta‘lim bermoq uchun muallim tayin etmoq

Hazrat Navoiy bolaga shafqat ko‘rsatmoq ezgu ish, ammo ziyodasi nojoiz bo‘lishi haqida yozadi:

Mehr ila zajriki tavaqqu‘ durur,

Tiflg‘a sendin bu tavozu‘ durur.[1, 186]

Bundan tashqari bobda ota-ona va el-ulus oldidagi majburiyatlar ham belgilanib, odob shartlari bayon qilingan.

Xulosa. Ko‘rinadiki, odob burch hamda majburiyatlar, bu foniy dunyo havaslariga aldanmay, aql va mulohaza bilan ish yuritmoqdir. Har vazifada o‘zni sobit tutmoq hamda harakatlarni shariat rioyati bilan amalga oshirmoq, desak xato bo‘lmaydi. Shu jihatdan qaraganda, adabiyot odob emas, u nasihatgo‘ylik qilmaydi, deyishga qay ma’noda haqlimiz?! Odamlar jamiyat tutumini yaratadilar, shu bois har qaysi davlatda qonuniyatlarni belgilovchi qomuslar ishlab chiqiladi. Chunki insoniyat me‘yor mohiyatini tushunmog‘i shart. Zotan, tartibsizlik uni halokatga mahkum qiladi. Adabiyot bu jihatdan hech qaysi davrda vazifasini unutmagan. Inson kamoli va ma‘naviy tanazzulini ko‘rsatish

orqali fojealardan asrashga harakat qilgan. Biz adabiyotni shuning uchun ham toza saqlashimiz va to‘g‘ri yondashuv yo‘lini belgilab olmog‘imiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 1-10-jildlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.
2. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003. – 112 b.
3. Haqqul I. Kasbi kamol o‘zni tanishdir – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 1991. – 272 b.
4. Rahmonova Z. Ishq, irfon va irshod. – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021. – 264 b.
5. Jo‘raqulova N. Turkiylar: Er va Eran obrazi. –Toshkent:Anorbooks, 2025. – 251 b.

